

## ABDURAUF FITRAT SHE'RLARIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIVLIKNI IFODALOVCHI LISONIY VOSITALARNING LINVOPRAGMATIK TAHLILI

Usmonova Shahnoza Erkinjonovna,

Namangan davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

e-mail:zafarbekismatov@gmail.com

### ANNOTATSIYA

*Emotsional-ekspressivlik tushunchasi bugungi zamonaviy tilshunoslikda hali ham markaziy tushunchalardan ekanligini yaxshi bilamiz. Ko'plab shoir va yozuvchilarimizning asarlari misolida bu tushunchani bir necha tilshunoslik yo'nalişlarida tadqiq qilingan. Faqat baho munosabatini ifodalaydigan bu so'zlarni Fitrat she'rlarida qo'llanishi va ularning lingvopragmatik tahlilini hali o'r ganilmagan. Shu bois mazkur maqolada Abdurauf Fitrat she'rlarida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy vositalarning lingvopragmatik xususiyatlarini tahlil qilinadi. Shu bilan birga Fitratning badiiy topilmalarini ham o'r ganilib, shoir aslida nima demoqchilagini yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** emotsiya, emotsionallik, ekspressivlik, emotiv, emotsional-ekspressiv ma'no, emotsional-ekspressiv bo'yoq, denotativ, konnotativ va pragmatik ma'no, fonetik usul, morfologik usul, leksik usul, punktatsion usul.

### ABSTRACT

*We know well that the concept of emotional-expressiveness is still one of the central concepts in today's modern linguistics. On the example of the works of many poets and writers, this concept has been studied in several areas of linguistics. The use of these words, which express only the relation of value, in Fitrat's poems and their linguo-pragmatic analysis have not yet been studied. Therefore, this article analyzes the linguo-pragmatic features of linguistic tools expressing emotional-expressiveness in Abdurauf Fitrat's poems. At the same time, the artistic findings of Fitrat are also studied, and what the poet actually wants to say is illuminated.*

**Key words:** emotion, emotionality, expressiveness, emotive, emotional-expressive meaning, emotional-expressive color, denotative, connotative and pragmatic meaning, phonetic method, morphological method, lexical method, punctuation method.

### KIRISH

"Emotsiya" fransuzcha so'z bo'lib, his-hayajonga solmoq, to'lqinlantirmoq ma'nolarini anglatadi. Lug'atlarda unga tashqi va ichki qo'zg'atuvchilar ta'siri natijasida odam va hayvonlarda paydo bo'ladigan ruhiy kechinma, his-tuyg'u, his-

hayajon, qo‘zg‘alish deb ta’rif berilgan. Shu o‘zakdan kelib chiqqan “emotsional” termini esa his-tuyg‘u ifodalovchi ma’nosini anglatsa, “emotsionallik” so‘zi emotsional belgi, xususiyat, shunday belgi xususiyatga egalik ma’nolarini ifodelaydi.

“Ekspressiv” lotincha so‘z bo‘lib, asl ma’nosiga ko‘ra “kuchaytirilgan” demakdir. Bu termin tilshunoslikka ko‘chma ma’nosи bilan kirgan bo‘lib, “kuchli hissiy obrazilik xususiyati” degan ma’noni ifodelaydi [1;6]. His-hayajon psixologiya fanida tekshirilsa-da, tildagi vositalar orqali his-hayajon ifodalangani sabab tilshunoslар tomonidan o‘rganiladi. Ekspressivlik va emotsionallik tushunchalari bir-biriga bog‘liq bo‘lgan, umumiy tushunchalarni ifodelaydi. [2;6]. “Nutqni yana-da yorqinroq, ta’sirchanroq, taassurotliroq qiladigan narsalarning hammasi ekspressiyadir. Demak, nutqning ekspressivligi – nutqni yorqin, ta’sirchan, tasviri, taassurotli qiluvchi vositalardir” [3;99]. Ekspressivlik (lotincha expressio) – ifodaviylik, his-tuyg‘uni, xavotirni bildiruvchi kuch degani.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tilshunosligida ko‘p tilshunoslар, jumladan, F.Sossyur, V.Vundt, K.S.Luis, E.Bergen, V.F.Gegel, D.Bolingerlar o‘z ilmiy ishlarida emotsional-ekspressiv so‘zlar va ularning ma’no taraqqiyotini o‘rganganlar. V.I.Shaxovskiy, E.M.Galkina Fedoruk, E.F.Patrishcheva, S.S.Plyamovataya, S.G.Lyubova, S.K.Abakumov, V.V.Vinogradov, Y.Y.Myagkova kabi rus tilshunoslари esa o‘z tadqiqotlarida emotsional so‘zlarni ko‘proq psixologiya faniga bog‘lab o‘rganishga erishishgan.

O‘zbek tilshunosligida ham bu borada samarali tadqiqotlar olib borilganini kuzatishimiz mumkin. Dastlab Y.Pinxsasov “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” ilmiy qo‘llanmasida emotsional so‘zlarni his-hayajonni bildiruvchi maxsus so‘zlar va so‘zlovchining predmet, voqeа-hodisalarga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalovchi so‘zlar [4; 44]ga bo‘lganini e’tirof etgan bo‘lsa, I.Qo‘chqortoyev so‘zlarning bog‘lanishi asosida emotsional-ekspressivlik hosil bo‘lishini aytib o‘tgan [5;168]. S.Usmonov, Sh.Rahmatullayev, F.Kamolov, H.Jamolxonov, G.Kabuljanova, G‘.Qambarov, X.Doniyyorov, M.Mirtojiyev, S.G‘oyibov, R.Qong‘urov, A.Abdullayevlarlarning ilmiy tadqiqotlarida ham emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi leksikalar tahlilini kuzatamiz.

O‘zbek tilida nominativ ma’noga ekspressiya elementi qo‘silgan so‘zlar ko‘pligini bilamiz. Ularni o‘rganishdan avval so‘zning umumiy ma’nolari haqida ham fikr yuritish lozim . Bilamizki, so‘zning umumiy ma’nosи denotativ, konnotativ va pragmatik ma’noga bo‘linadi. Denotativ ma’no – obyektiv borliqning insoniyat ongidagi bevosita in’ikosi. Konnotativ ma’noni ayrim adabiyotlarda, jumladan,

M.Hakimovaning “Semasiologiya” asarida emotiv, emotsional-ekspressiv ma’no [6;28] deb ham aytilgan. Bunga sabab esa konnotativ ma’no qo’shimcha ma’no bo‘lib, emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lishidir. Emotsional-ekspressiv bo‘yoq ijobjiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin. Pragmatik ma’no ham tilshunoslikda katta ahamiyatga ega bo‘lgani bois ijtimoiy, amaliy ma’no hisoblanadi, asrlar mobaynida qo’llanib kelinayotgan denotat yoki konnotat to‘ldira olmayotgan bo‘sh o‘rnlarni, o‘zi qoniqmayotgan jihatlarni ifodalash uchun millat tomonidan ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-adabiy, geografik-areal, diniy-etnografik va boshqa jihatlarini o‘zida namoyon qiladi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yuqorida keltirilgan ilmiy asosli fikrlarni jadidimiz Abdurauf Fitrat she’rlari asosida tahlil qilishga harakat qilamiz, zero uning she’rlarida qo‘llangan emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy vositalarni hali lingvopragmatik tahlil qilinmaganligini kuzatishimiz mumkin. Shuning uchun ham bu galgi maqolamizda uning bir nechta she’rlari misolida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi leksikalarni linvopragmatik tahlil qilib chiqamiz.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Buning uchun esa avvalo, so‘zning emotsional-ekspressivlik darajasi so‘zlovchining layoqatiga bog‘liq bo‘lishini yodda tutgan holda emotsional-ekspressivlikni amalga oshirish mumkin bo‘lgan usullardan ba’zilarini belgilab olamiz va aynan shu usullarga Fitrat she’rlaridan misollar keltirish orqali shoir aslida nima demoqchi ekanligini ko‘rib chiqamiz:

1. Fonetik usul. Bu usul orqali ekspressivlik yaratishda intonatsiya muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi o‘zbek tilida fonetik usul bilan ma’no kuchaytirishning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

a) unlini kuchli talaffuz qilish (zarb urg‘usi) va unlini cho‘zish (kvantitativ urg‘u);

*Yaangigina* kelin bo‘lg‘an bir qizning

Ko‘kragini eri bo‘lgan yigitning

Jonsiz yotgan gavdasi uzra qo‘yub

Nayza bilan teshmishlar!..

(“*Sharq*” poemasidan) [10;41]

b) undoshni qavatlash (geminatsiya):

*Erka malak, achchig‘lanmam* senga

*Uchirsang-da ko‘kka yurak kulin.*

*Achchig‘lanmam senga, nozli quyosh,  
Yondirsang-da umidimning gulin.*

(“Achchig‘lanma degan eding” she’ridan) [10;36]

Yo‘q... yo‘q... Tangri **haqqi** uchun yo‘q!..

(“Yurt qayg‘usi” sochma she’r)[10;31]

Sanab o‘tilgan fonetik hodisalarning qo‘llanishida o‘ziga xos shart-sharoitlar va qonun-qoidalar mavjud. Yuqoridagi misralarda qo‘llangan “**achchiq**” va “**haqqi**” so‘zlarida ch va q tovushining ikkilantirilishi asosida shoirning o‘z tinglovchisiga nisbatan yo‘llayotgan murojaatini kuchli ohangda aytayotganini kuzatish mumkin. Shuni ham ta’kidlash lozimki, hozirgi kunda achchiq so‘zida ch tovushini ikkilantirib qo‘llash meyoriy holat hisoblanadi.

2. Sinonimlarni qo‘llash bilan bog‘liq usul. Ekspressivlik ifodalovchi leksik vositalar sifatida polisemantizm, stilistik chegaralangan leksika, sinonimiya va frazeologiya kabi hodisalarni belgilash mumkin. Sanab o‘tilgan til hodisalari ekspressivlik hosil qilishda aktiv va sermahsul vositalardir. Sinonimiya stilistikaning asosi bo‘lib, sinonimik birliklar ekspressivliklar yaratishda muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, gradatsiya imkoniyatiga ega bo‘lgan til hodisasi hamma vaqt ekspressivlik ifodalash imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Chunki gradatsiyaning o‘zi ma’noning kuchi jihatidan darajalanishi demakdir:

*Ey mungli xotun, sen kimsan?*

*Ey g‘amli ona, nechuk mundan ayrilmaysan?*

(“Yurt qayg‘usi”. Bir o‘zbek nutqi)

[10;32]

Bu yerda **mungli xotun**, **g‘amli ona** birliklari yordamida sinonimlar orasidagi gradatsiyaga guvoh bo‘lamiz. Bu esa ushbu misralarda ekspressivlik mavjudligini anglatadi. Fitrat ushbu she’rida gradatsiyadan foydalanib o‘zi yashagan davr ayollari orqali yurt qadri qanchalik balandligi haqida e’tirof etadi.

*Bag‘rim yoniq, yuzim qora, ko‘nglim siniq, bo‘ynim bukuk.*

*Sening ziyoratingga keldim, sultonim!*

*Ezilgan boshim, qisilgan vijdonom, kuygan qonim, o‘rtangan jonim  
uchun bu sag‘anangdan davo izlab keldim, xoqonim!*

*Turk uchun qo‘ydig‘ing davlat bitdi, turk ostig‘a qurdig‘ing hoqonlik  
yog‘iygami ketdi.*

*Turkning nomusi, e’tibori, iymoni, vijdoni zolimlarning ayog‘larin ostinda  
qoldi.*

*Turkning yurti, ulog‘i, o‘chog‘i, Turoni yot qo‘llarg‘a tushdi.*

*Turkning bilgisi, ongi, o‘ylovi, ziyrakligi jaholat o‘jasig‘a ketdi.*

*Sening omonatingg ‘a xiyonat qilg ‘anlarni ez, ur, o‘ldur!  
Sultonim!*

(“Yurt qayg ‘usi”. Temur Oldinda.) [10;33]

Ushbu misralarda ham sinonimiyaga xos gradatsiyani kuzatamiz, bu orqali shoir o‘z davrida bo‘layotgan o‘zgarishlardan bezovta ekanligini bildirib, Turonni yot qo‘llarga berib qo‘yilganidan azoblanayotganini aytib Temurdan uzr so‘raydi.

*So‘kish, qarg‘ish, la’nat aralash bo‘g‘iq  
Shu qorong‘u, yuraklarni(ng) butunlay  
Tovushlari senga to‘g‘ri yuksalgan.  
Quvilasen bu sezgusiz o‘lkadan. (Ovunchoq)[10;37]*

Yuqoridagi she’rda keltirilgan *So‘kish, qarg‘ish, la’nat* kabi sinonimik birliklar ham gradatsiya asosida tartiblanganini kuzatamiz.

3. Ko‘p ma’noli so‘zlar (polisemiya). Polisemantizmlar bir ma’nosи (to‘g‘ri, nominativ ma’nolar) bilan neytral, yana bir ma’nosи (figural — ko‘chma ma’nosи) bilan esa ekspressiv-emotsional fikr ifodalash uchun xizmat qiladi[8;4]:

*Qip-qizil gulim, yop-yorug‘ oyim,  
Ketmay tur, bir oz men ko‘ray seni.  
Dardi jonimning sen davosimi?  
Mungli ko‘nglumning podishosimi?  
Gulmi sen, ko‘zim, jonmi sen, ko‘zim?  
Ko‘nglimning buti yo xudosimi?  
Bilmadim, gulim, ayt o‘zing kulib,  
Oshiqing nechuk atag‘ay seni? (“Kim Deyay Seni?”)[7;20]*

Bu she’rda oshiq shoir o‘z sevgilisiga metaforik o‘xshatmalar: *qip-qizil gulim, yop-yorug‘ oyim, mungli ko‘nglumning podishosi, ko‘nglimning buti yo xudosikabi* murojaatlar orqali so‘zlab, she’rdagi badiiy pafosni yana-da kuchaytirishga erishgan.

*Qizil gulim, qora ko‘zim, tilagim,  
Dunyo sening boqishingdan o‘rgulsun.  
Yovuz yorim, yuzingga hech boqolmam,  
Ko‘ngil dardin oyog‘ingg‘a to‘kolmam. (“Bir oz kul”)[7;20]*

Yoriga bag‘ishlab yozilgan bu galgi she’rida ham Fitrat chiroyli metaforik ekspressiyani vujudga keltira olgan.

*Oh... u kunlar!...  
Sho ‘r suvlardan chiqib kelgan bu maymun,  
Tulki, ilon, shayton, aldovchi mal‘un  
Anglizlar!...*

*Hamda uning quyrug‘ini tutkanlar! (“Qor”)[7;22]*

Mazkur she’rda Fitrat inglizlarni **maymun**, **tulki**, **ilon**, **shayton** kabi sifatlashlar orqali polisemik gradatsiyani yuzaga keltirgan. Bu orqali ingliz xalqining aldovchi xalq ekanligiga urg‘u bergen.

*Yig‘la, bir oz o‘ksuzlangan tilagim:  
Men ham senday baxsizlikka tutundim,  
Umidsizlik ora tushib yo‘qsul jonim o‘rtandi.*

(“Yana yondim”)[10;38]

Fitrat davrini mutlaq yuzini olib beruvchi yuqoridagi she’ridan keltirilgan parchada **o‘ksuzlangan tilak**, **yo‘qsul jono**‘xhatishlari vositasida kuchli metaforik ekspressiyani vujudga keltirganini kuzatamiz.

*Biroq bu kun, esizlarkim, bu o‘lka  
Har tomondan talanmishdir yo‘lsizcha,  
Madaniyat degan g‘arbli olbosti,  
Boqing, buning ko‘kragidan o‘q bosdi. (“Sharq”)*

“Sharq” poemasidan keltirilgan bu misralarda qo‘llangan **g‘arbli olbostio**‘xhatishi Fitratning shaxsiy ekspressiv topilmalaridan biridir.

#### 4. Leksik (so‘z tanlash):

**Orqadoshlar**, to‘planaylik jahning uyin yiqqali

(“O‘qitg‘uchilar Yurtiga”)[10;42]

Bu yerda **orqadoshlar** (*Fitratning shaxsiy topilma so‘zlaridan biri!*) so‘ziniqo‘llashning o‘zi bir jozibadorlikni oshirgan.

5. Morfemik (qo‘srimcha variantlarini almashtirish) usullari. Ekspressivlik-emotsionallik ifodalashning morfologik usuli deganda maxsus so‘z formalari vositasida, shuningdek, ma’lum bir grammatik ma’no ifodalovchi formani maxsus qo‘llash (ko‘chma ma’noda) orqali ekspressivlik-emotsionallik ifodalash tushuniladi.

-chaqo‘shimchasi, odatda, maxsus ekspressivlik ifodalovchi vosita bo‘lib, suyish, erkalash, yoqtirish, ba’zan, mensimaslik, tahqirlash, kesatish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Lekin quyidagi misrada –cha qo‘shimchasi harakatni

(**o‘qiduqcha**) va harakatning belgisini (**umidsizcha**) anglatuvchi so‘zlarga qo‘shilib kelganini va yangi so‘z hosil qilinganini kuzatamiz:

*O‘qiduqcha, u izdan  
O‘zim uchun ko‘b umidlar to‘qidim.  
— Umidsizcha yashay olmam, netayin (“Shoir”)*

Fitrat she’rlarida morfologik usul yordamida hosil qilingan ko‘plab go‘zal ekspressiv ruhdagi misralarni ko‘ramiz. Ayniqsa, **–mi** so‘roq yuklamasining o‘rnini

almashtirib qo'llashi natijasida Fitrat yurtning fojiali qayg'usini yana-da kuchliroq, bo'rttiribroq ko'rsatishni maqsad qilgan misralari kishini ajablantiradi:

*Onam! Seni qutqarmoq uchun jonmikerakdir?  
Nomusmi, vijdon bila imonmi kerakdir?  
Temur bila Chingiz qoni toshdi tomrimizdan,  
Aytgil! Seni qutqarmoq uchun qonmi kerakdir?  
Yov suqg'ali kelgach qilichini yuragingga,  
Tush oldiga, ol ko'ksumi — qalqonmi kerakdir?  
Boq, boq, mana turk tengizi toshqun qila qoldi,  
Turon yovini quvg'ali to'fonmi kerakdir?  
Turon, yigiting, barchaga boq, qalqdi oyoqg'a,  
Yurda qorovul qo'yq'ali arslonmi kerakdir?*

(“Yurt qayg'usi”)[10;31]

Endigi misralarda -lar qo'shimchasi harakatni anglatgan so'zlar(*qarag'aylar, kulgaylar, qo'llag'aylar, ko'mak etkaylar*)ga qo'shilib, ko'plik ma'nosidan tashqari bo'rttirishni ham anglatganini ko'ramiz, bu esa Fitratning yana bir ekspressiv leksika yasashdagi mahoratini ko'rsatadi:

*Kim ozg'ina qarag'aylar, kulgaylar  
Ingrab turgan jonini  
Qo'llag'aylar, bir oz ko'mak etkaylar.* (“Shoir”)[7;22]

6. Ekspressivlik ifodalashning yana bir usuli so'zlarining analitik takror formasidir. Bir o'zakli so'zlarning qaratqich-qaralmish formasida kelishi orqali ekspressivlikni hosil qilish esa she'riyatda keng uchraydi, shuning uchun buni Fitrat ijodida ham kuzatishimiz tabiiy hol:

*Ey arslonlar arsloni!  
Menim yozuqlarimdan o't,  
Meni qo'limni tut,  
Belimni bog'la, muqaddas fotihangni ber!* (“Yurt qayg'usi”)

Lekin quyida keltirilgan ekspressiyada esa ham polisemik, ham qaratqich-qaralmish formadagi ekspressivlikni kuzatamiz, bu esa badiiy ijodda kamdan kam kuzatiladigan jarayondir:

*Ey Chingizlarning, Temurlarning, O'g'uzlarning, Otillalarining shonli beshiklari!* (“Yurt qayg'usi”)

Fitratning ushbu she'rida yana bir go'zal ekspressiyani uchratamiz, unda *qani va nechun* so'zining qaytarilishi asnosida analitik takror formalı ekspressiya vujudga kelganining guvohi bo'lamiz. Bu orqali shoir o'z davrining xalqiga kuchli murojaat bilan chiqib, ozodlikka undaganini ko'ramiz:

Dunyoni «urho»lari bilan titratkan yo 'lbars yurakli bolalaring **qani?**  
Yer tuprog 'ini ko 'klarga uchiraturg 'an tog ' gavdali o 'g 'lonlaring **qani?**

**Nechun** tovushlari chiqmaydir?

Yer yuzining bir necha polvonlari bo 'lgan botir turklaring **qani?** **Nechun** chekindilar?

**Nechun** ketdilar? Kurash maydonlarini o 'zgalarga nechun qo 'ydilar?

**Nechun... Nechun... nechun..?**

Gapur menga, ey Ulug ' Turon, arslonlar o 'lkasi! Senga ne bo 'ldi?!

(“Yurt qayg 'usi”)

Ba'zan misralar orasida bir so 'zning qaytariq holatida kelishi ham biz kutgandan-da a'lороq ekspressivlikni beradi. Bunga Fitrat she'rлaridan yaqqol misol keltiramiz:

**Sening Turoningni o 'zim talatdim,**

**Sening turkligingni o 'zim ezdirdim,**

**Sening omonatlariningga xiyonat o 'zim qildim.**

(“Yurt qayg 'usi”. Temur tili)

**Ur, ur!.. Sening tirnoqlaring nozli, nozli urdiqcha,**

**Yuragimning bitib qolgan yaralari ochilsun!**

(“Parcha”)[10;41]

7. Punktuatsion belgilarning ishlatalishi uslubi. She'riy talab bilan gap bo'laklari bir-biridan uzilib qolsa, ular o 'rtasida munosabatni tenglashtirish, turli his-tuyg 'u va modal ottenkalarni ifodalashda tiredan foydalilaniladi. Ayrim o 'rinlarda tire ma 'qullah, ayirib ko 'rsatish kabi uslubiy vazifa ham bajaradi.[9;157]Bu holatni Fitratning quyidagi misralarida ham uchratamiz:

**Yig 'ladim,**

**Kuldim,**

**Yalindim —**

**Tushundim:**

**Birtasi ham mizojiga yoqmadni.**

**Nechun meni sababsizcha unutdingiz— aytingiz?**

**O 'tinamen... yalinamen, qochmangiz — qaytingiz!**

(“Yana yondim”)[7;22]

**Turma — Yugur, tinma — tirish, bukilma — yuksal,**

**Hurkma — kirish, qo 'rqma — yopish, yo 'rilma — qo 'zg 'al.**

(“O 'gut”)[10;41]

## XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Abdurauf Fitrat she'rlarida emotsional-ekspressivlikni ifodalovchi lisoniy vositalar juda ko'p va rang-barang. Shoirning bunday vositalardan foydalanishi esa she'rlarining qimmatini yana-da oshirgan.

Yuqorida misol qilib berilgan Fitrat she'rlarida ta'sirchanlik qanday vositalar orqali ifodalanganligini ko'rish orqali uni yana bir bor tengi yo'q ijodkor va shu bilan bir vaqtda yetuk tilshunos olim bo'lganligini isbotladik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES):

1. Маджидова Р.У., Мухиддинаева Х.С., Султонова Ш.М. Тилшуносликка кириш. - Тошкент, 2015. – 66.
2. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодалайиши. - Тошкент: Фан, 1983.- 6 б.
3. Галькина-Федорук Е. М. , Горшкова К. В., Шанский Н.М. Современный русский язык. М, 1962. – Т.І. - с. 99.
4. Пинхасов. Ҳозирги ўзбек адабий тили. - Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – 44 б.
5. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. - Тошкент: Фан, 1977.- 168 б.
6. Ҳакимова М. Семасиология. - Тошкент, 2008.- 28 б.
7. «Шарқ юлдузи» журнали.- Тошкент, 1991.- 6 сон. –20-22 б.
8. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлики фодалашнинг синтактик усули. - Тошкент: Фан, 1987.- 4 б.
9. Э. Қиличев. Ўзбек тилининг амали стилистикаси (грамматика).- Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 1576.
10. Фитрат. Танланган асарлар. 4 жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 31-32-33-36-37-38-41-42- б.